

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA SUBSTANDART
BIRLIKLARNING KIBERLUG‘ATLARDAGI PRAGMATIK,
LINGVOKULTUROLOGIK VA SOTSIOLINGVISTIK**

JIHATLARI

Satimova Dilafruz Numonjonovna,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent,
Andijon davlat chet tillari instituti,
dilmus09@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot ingliz va o‘zbek tillarida substandart leksikaning kiberlug‘atlardagi pragmatik, lingvokulturologik va sotsiolingvistik jihatlarini tahlil qiladi. Substandart birliklarning ijtimoiy faolligi, ularning kommunikativ muhitda funksional reallashuvi, milliy-madaniy bo‘yoqdorligi hamda kiberlug‘atlardagi izomorfik va allomorfik jihatlari kompleks yondashuv asosida o‘rganiladi. Bundan tashqari, maqolada substandart leksikaning diskursiv xususiyatlari, uning internet-platformalarda va ommaviy axborot vositalarida shakllanish mexanizmlari, shuningdek, pragmatik aspektda ta’sirchanlik darajasi baholanadi.

Kalit so‘zlar: substandart leksika, kiberlug‘at, lingvokulturologiya, sotsiolingvistika, izomorfizm, allomorfizm, diskurs, mega-, makro- va mikro tuzilmalar, lingvopragmatik integratsiya, pometa.

Abstract. This study examines the pragmatic, linguocultural, and sociolinguistic aspects of substandard lexicon in cyberdictionaries within English and Uzbek. It explores the social activity of substandard linguistic units, their functional realisation in communicative settings, their national-cultural connotations, as well as their isomorphic and allomorphic characteristics in cyber lexicons through a comprehensive analytical framework. Furthermore, the article evaluates the discursive features of substandard lexicon, its formation mechanisms within digital platforms and mass media, and its degree of pragmatic effectiveness.

Keywords: substandard lexicon, cyberdictionary, linguoculturology, sociolinguistics, isomorphism, allomorphism, discourse, mega, macro and micro structures, linguopragmatic integration, pometa.

Аннотация. В данном исследовании анализируются прагматические, лингвокультурологические и социолингвистические особенности субстандартной лексики в киберсловарях английского и узбекского языков. Рассматривается социальная активность субстандартных языковых единиц, их функциональная реализация в коммуникативной среде, национально-культурная окраска, а также изоморфные и алломорфные характеристики в киберсловарях на основе комплексного подхода. Кроме того, исследование оценивает дискурсивные особенности субстандартной лексики, механизмы её формирования в цифровых платформах и средствах массовой информации, а также степень её прагматического воздействия.

Ключевые слова: субстандартная лексика, киберсловарь, лингвокультурология, социолингвистика, изоморфизм, алломорфизм, дискурс, мега-, макро- и микроструктуры, лингвопрагматическая интеграция, помета.


Internet (kiber–) leksikografiya (cyberlexicography) zamonaviy leksikografik amaliyotdagi yo‘nalish bo‘lib, lug‘atlar yaratish uchun internet makonidan foydalanishga asoslangan. Bunday elektron lug‘atlar asosiy ikki bo‘limdan tashkil topadi: *dasturiy ta‘minot qobig‘i* va *lug‘at bazasi*. Qobiq deyarli doimiy qolishi mumkin bo‘lganligi sababli, lug‘at bazasini ulash, ajratish yoki turli usulda o‘zgartirish texnik jihatdan osonlashadi [1, 519].

Ingliz tilida substandart leksikografiya – adabiy me‘yordan chetga chiqadigan so‘zlar va iboralar (sleng, jargon, kent, argo, vulgarizmlar, dialektal birliklar) ni lug‘atlarda to‘plash, tasniflash va izohlash amaliyotidir. Ingliz tili substandart leksikografiyasining rivojida XVIII asrdan boshlab, ayniqsa, XIX–XX asrlarda keng qamrovli tadqiqotlar amalga oshirildi.

G.V.Ryabichkina o‘zining *“Ingliz va rus tillarining substandart leksikografiyasi muammolari: nazariy va amaliy jihatlar”* nomli dissertatsiyasida ingliz hamda rus tillaridagi norasmiy leksikani (sleng, jargon, argot, dialektal birliklar va boshqa substandart qatlamlarni) lug‘atchilikda aks ettirish masalasini chuqur o‘rganadi [2, 45]. Tadqiqot, asosan, E. Partridjning *A Dictionary of Slang*

and *Unconventional English* va V. M. Mokiyeenko va T. G. Nikitining *Большого словаря русского жаргона* asarlari taqqoslashi bilan bog‘liq. Birinchi ish — ingliz tilining (Britaniya varianti) milliy davriga tegishli substandart leksikasiga ixtisoslashgan hamda ikkinchi ish — rus tilining milliy davriga tegishli substandart (jargon) leksikasiga ixtisoslashgan. Muallif har ikki lug‘atning *mega-* (umumiy tuzilma), *makro-* (lug‘at birikmalarini joylashtirish, tasnif) va *mikrotuzilma* (konkret so‘zlar, ularning izohi, belgilar va pometa) darajalarini bir xilda tahlil qiladi. Aytish joizki, E. Partridj o‘zining lug‘atidagi *mega-*, *makro-* va *mikro* tuzilmalar [3, 237] ingliz tilining turli substandart qatlamlarini sotsioleksikografik mezonlar asosida qayd etish uchun eng optimal modellarni taklif qiladi:

A) ma’no aniqlash (semantizatsiya) jarayoni to‘liq va o‘zaro bir–birini to‘ldiruvchi leksikografik vositalar yordamida amalga oshirilib, vokabulyar ma’nolarining kelib chiqishi, ta’rifi va qo‘shimcha semantizatsiyasi chuqur, ko‘p qirrali va detal tasvirni ta’minlagan; B) stereotipik o‘zaro bir–birini to‘ldiruvchi lug‘aviy belgilash (pometa) tizimini ishlab chiqib, uni muntazam ravishda qo‘llash. Bu tizim substandart leksik birliklarni lingvistik hamda sotsiolingvistik ma’lumotlar bilan boyitib, ularni mantiqiy tartibga solish imkonini beradi. Natijada har bir norasmiy (substandart) so‘z yoki iboraning kelib chiqishi, adabiy standartga nisbatan tutgan o‘rni, uslubiy bahosi va ijtimoiy qatlamlarga xosligi izchil va yaxlit shaklda tasvirlanadi. Demak, lug‘atlardagi substandartning metodik va struktural yondashuvi E. Partridjning lug‘atidagi *mega-*, *makro-* va *mikro* tuzilmalariga asosan quyidagicha gavdalanadi:



1 – rasm. Lug‘atlardagi substandartning metodik va struktural yondashuvi

Megastruktura: lug‘atning umumiy so‘zlar ro‘yxatini tartiblash prinsipi (alfavit, tematik, xronologik va boshqalar). Sleng lug‘atlari, odatda, alfavit tartibda yoki ba’zan tematik qismga ham bo‘linishi mumkin.

Makrostrukturasi: sleng birliklarning lug‘atga qabul qilinish mezonlari (faollik, ijtimoiy qatlam, tarixiy davr), pometa (coll., slang, taboo, archaic, dial., vulg., j. – jargon, c. – cant) orqali tasniflash, sinonim, antonim yoki parallel shakllarni qayd qilish.

Mikrostrukturasi: so‘zning (slengizmning) ortografik va fonetik shakli, etimologiyasi, tarqalgan hudud yoki sotsiologuruk, dastlabki hujjatlangan yili, kontekstual misollar (ilova qilib keltirilgan iqtiboslar), semantik izoh va ma’no differentsiatsiyalari, uslubiy qiymati (masalan, tahqirli, odob doirasida, yumshatilgan, kinoyaviy, hazilomuz, rasmiy va hokazo).

Stilistik pometa: Sleng birligi adabiy tilga nisbatan “*quyi uslubiy qatlam*” ekani, ijtimoiy qatlamga oidligi, tarixan arxaiklashgani, jinoyatchi olam nutqiga aloqadorligi, evfemistik xususiyati, bularning barchasi pometalarda yordamida beriladi. *Etimologik ma’lumot:* Ko‘plab sleng birliklari aniq kelib chiqishidan mahrum bo‘lsa–da, lug‘at tuzuvchilar mavjud tarixiy, yozma manbalarga suyanib, etimologik izoh keltirishga harakat qiladilar. *Autentik misollar:* Ilmiy dalillar uchun gazetalar, adabiy asarlar, intervyular, bloglar, radio–televideniye nutqi kabi manbalardan misollar keltiriladi, bu so‘zning haqiqiy qo‘llanishini tasdiqlaydi.

Darhaqiqat, o‘zbek tilida hozirgi davr uchun dolzarb so‘zlarni jamlash ishlari ham olib borilmoqda. Jumladan, tilshunos olimlar A. Hojiyev va A. Nurmonovlar rahnomoligida ko‘plab o‘zlashma leksik birliklar qayta ko‘rib chiqildi. «*Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati*» – o‘zbek lug‘atchiligi tarixida katta ahamiyatga ega bo‘lgan bir jildlik lug‘at bo‘lib, unda o‘zbek tilida hozirgi kunda faol qo‘llanilayotgan yoki yaqin kelajakda faollashishi kutilayotgan leksik birliklar jamlandi [4, 336].

Biroq, hali-hanuz tor soha terminlari, substandart birliklar (sleng, jargon, argo, quyi kollokvializm, anglisizm va dialektizmlar), substandart frazeologizm va qisqartmalar yetarlicha lug‘atga kiritilmagan. Demak, bu lug‘at umumiy adabiy tilda faol ishlatiladigan leksik qatlamni qayd etish bilan kifoyalanadi. Anglashiladiki, o‘zbek tilshunosligida substandartga xos lug‘atlar ishlab chiqilishi nihoyatda dolzarb. Ayniqsa, uni elektron ko‘rinishi, ingliz lug‘atlaridek oson va qulay holatda bo‘lishini ta‘minlaydi.

Masalan, ingliz tilida bir substandartni bir necha lug‘atlardagi farqi va izohini ko‘rib chiqsak:

Bail fe‘lining ingliz tilida sleng (substandart) ma‘nolaridan biri sifatida “Oxford English Dictionary” (OED) kabi ilg‘or elektron lug‘at orqali har bir leksemaning chuqur tahlil qilinishini uchratishimiz mumkin. Quyida keltirilgan lavhalarda OED matni faktlarga boy (quotations, statistika, etimologiya, stilistik belgilar) ko‘rinishda namoyon bo‘lgan. Bu holat, kiberleksikografiyaning zamonaviy yutuqlaridan hisoblanib, substandart qatlamni aniqlash, izohlash hamda lisoniy–taqriziy jihatdan katta hajmdagi ma‘lumot taqdim etish imkonini beradi. OED lug‘ati bazasiga ko‘ra berilgan *bail* leksemasining qayd etilgan mazmunlar turi keng spektrga ega ekanligi aniqlanadi: iqtibos muallifi/quotation author – 24 ta, iqtibos olingan asar/quotation works – 11 ta, iqtibos matni/quotation text – 415 ta, ma‘nosi/meanings – 64 ta, ta‘rifi/definitions – 114 ta, etimologik izoh/etimologies – 58 ta, tarixiy tezaurus/historical thesaurus – 58 ta. *Bail* leksemasi ingliz tilida ham *ot* shaklda ham *fe‘l* shaklda keladi. Biz uning fe‘l shaklining ikkinchi ma‘nosi norasmiy tarzda ikki xil semada qo‘llanishiga e‘tiborimizni qaratamiz:

1. **noun** *sud oldidan vaqtincha ozodlik (garov puli evaziga)*; the temporary release of an accused person awaiting trial, sometimes on condition that a sum of money is lodged to guarantee their appearance in court [5].

He has been released on bail

verb release or secure the release of (a prisoner) on payment of bail.

Nine were bailed on drugs charges

2. **slang** (originally North American) [5]

2 a. intransitive. = sense 1b. Also with *on*. intransitive. colloquial. *yo 'qolmoq, tark etmoq, ketmoq, tezda chiqib ketmoq*; To leave hurriedly; to escape an unpleasant situation or abandon a burdensome responsibility. Also with *of* or *on*. – **1977**

1977 **Bail**, ... to leave, depart, exit. *G.F.R.Filosa Surfer's Almanac 181*

1982 When you skip school..., it's cool to go, 'like, *I bailed, man.*' Or when you leave a party, you go, 'Let's bail'. *M.Pond, Valley Girl's Guide to life 51*

2002 She studied kinesiology for a year, then **bailed** and headed to Europe for four years of modeling. *Premiere June 61/2*

2 b. *intransitive. yiqilib tushmoq yoki qaltis sport harakatini to 'xtatmoq*; In Skateboarding and similar sports: to fall, esp. deliberately in order to avoid injury when a worse fall seems imminent; (also) to jump from one's board, etc., for this purpose. Also *transitive*: to abandon the execution of (a manoeuvre).

1984 **Bail**, to fail either while skating or walking. *San Francisco Examiner & Chron 2 September (Calif. Living Supplement) 20/2*

1988 The first obstacle for a street boarder, however, is getting used to skating backwards, downhill. Then there's learning to '**bail**' – wipe out. *Toronto Star 13 November h7*


1997 Newer bladers should learn to crash in grass before they hit the roads..., and should learn to always look for a safe place to **bail**. *Prevention (Electronic edition) April*

2001 You're standing on the platform with your knees trembling. And your **bail** tricks that you normally always manage. *Adrenalin No.9.157 (advertisement)*

2004 If you have to **bail**, it's best to let go of the bikes so you can run or slide down the back side of the jump. *T.Donaldson, BMX Trix v. 92/2*

Yanada qo'shimcha ma'lumotlar uchun elektron lug'atdagi pastda o'ng burchakdagi "colloquial and slang" tugmasini bosish orqali bir zumda mazkur so'zning boshqa variantlariga, masalan, ***bail bandit, bail on, bail out*** kabilarga yo'naltiradi va misollar orqali ifodalanish imkoniyatini taqdim etadi: **1991** – n. *One who commits a crime while on bail awaiting trial.*

Ko‘rinadiki, *Oxford English Dictionary* so‘zning tarixi (etimologiya), turli davrlardagi qo‘llanilish namunalari (quotation), uslubiy va ijtimoiy belgilari (colloquial, slang, taboo, archaic va h.k.) ni to‘liq ko‘rsatib bera oladi:



1) ***Factsheet (Faktlar jadvallari)***: Leksemaning birinchi qayd etilgan yili, tarqalish doirasi, uslubiy klassifikatsiyasi.

2) ***Etymology (kelib chiqishi)***: So‘zning avvalgi shakllari, qaysi sheva yoki boshqa til dan kirgani, tarihiy davrlarda o‘zgarishlar yuz bergani.

3) ***Meaning & Use (ma‘nosi va qo‘llanilishi)***: Adabiy, norasmiy, sleng, professional jargon kabi subkategoriyalar kesimida aniqlangan semantik ko‘lami.

4) ***Pronunciation (talaffuz)***: Fonetik transkripsiyalar, regional talaffuz farqlari (Britaniya, Amerika, Avstraliya va boshq.).

5) ***Forms (grammatik shakllar)***: Ot, fe‘l yoki boshqa so‘z turkumidagi shakllari, turlanishi.

6) ***Frequency (qo‘llanish chastotasi)***: So‘zning qachon ommalashgani, ayrim davrlarda pasayib, keyin yana qayta trendga aylangani (metadasturiy statistika).

Ingliz tilidagi yana bir elektron lug‘at – *Cambridge Advanced Learner’s Dictionary (CALD)* [6] – mazkur substandart ifodani avvalo uning *dialektal shakllari* Britaniya (BrE) va Amerika (AmE) hamda *talaffuzlari va transkripsiyalari* bilan tanishtiradi. So‘ngra, ushbu so‘zning *grammatik xususiyatlari* (birlik yoki ko‘plik shakli, fe‘l yoki ot turkumi h.k.), *ta‘rifi, misollari*, shuningdek, *leksemaga*

doir so‘z va iboralar (related words and phrases), *leksemaning boshqa ma‘nolari* (more meanings of *bail*) kabi kengaytirilgan ma‘lumotlar, *frazeologik* yoki *idiomatik shakllari* keltiradi.

Shundan so‘ng lug‘at **sotsiolingvistik** (norasmiy) belgilarga e‘tibor qaratib, o‘sha substandart shaklning *grammatik ko‘rsatkichlari*, *ta‘rifi* va *substandart frazema* yoki *iboralaridagi ko‘rinishlarini* bayon etadi. Nihoyat, leksemaning turli *kontekstlardagi ifodasi* haqiqiy (autentik) misollar yordamida yoritiladi. Bunday tuzilma foydalanuvchiga so‘zning dialektal va norasmiy xususiyatlarini tezkor aniqlash, shu bilan birga uning grammatik tavsifi, asosiy va qo‘shimcha ma‘nolari, hamda lingvokulturologik va sotsiopragmatik qirralarini chuqur idrok etish imkoniyatini beradi.

Anglashiladiki, ingliz tili kiber lug‘atlarida leksik birliklar turli jihatlariga ko‘ra ishlab chiqilishi, avvalo, (1) **lingvokulturologik** xususiyati bilan bog‘liq. Bu jarayonda, birinchi navbatda, so‘zning dialektal talqini, tilda madaniy maqomga ega ekani, frazeologik va idiomatik shakllari, va boshqa shu kabi ko‘rsatkichlar tahlil qilinadi. Keyingi bosqichda uning (2) **sotsiolingvistik** jihatlari, ya‘ni norasmiy yoki substandart ifodalanish holatlari qayd etiladi. Nihoyat, leksikaning turli kontekstlarda (3) **kommunikativ–pragmatik** jihatdan tushunilishi autentik misollar orqali ochib beriladi. Mazkur uch turdagi aspekt (lingvokulturologik, sotsiolingvistik va kommunikativ–pragmatik) orqali substandartning to‘laqonli ma‘no mazmunini anglash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Calzolari N. Computer-Aided Lexicography: Dictionaries and Word Data Bases // Computational Linguistics / Ed. By E.S.Batori, W.Lenders, W.Putschke. – Berlin, N. – Y., 1989. – P. 510 – 519.

2. Рябичкина Г. В. Проблемы субстандартной лексикографии английского и русского языков: теоретический и прикладной аспекты. Автореф. дисс. ...док.филол. наук. – Пятигорск, 2009. – 45 с.

3. Partridge E. A Dictionary of the Underworld. British and American. – Great Britain: Routledge Revivals, 2017. – 904 p.

4. Hojiyev A., Nurmonov A., Zaynobiddinov S. va boshq. – Toshkent: Sharq, – 336 b.

5. “Bail, V. (5), Sense 2.b.” Oxford English Dictionary, Oxford UP, March 2024, <https://doi.org/10.1093/OED/1116845162>. Date of access (14. 10. 2024)

6. Cambridge Advanced Learner’s Dictionary. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/bail> Date of access (16. 10. 2024)